


Katqa'la yodgorligida arxeologik tadqiqotlar davom etmoqda

Xorazm Ma'mun akademiyasi arxeologlari Katqa'la yodgorligida arxeologik tadqiqotlarni davom ettirmoqdalar.



Tadqiqotlar davomida arxaik davr, antik davr, ilk o'rta asrlar, rivojlangan o'rta asrlar davri madaniy qatlamlari ochib o'rganilmoqda. Turli hil sopol buyumlar, xumlar, xumchalar, sopol qozonlar, ko'zalar, inson va hayvon haykalchalari topildi. Shu bilan birga, ilk antik davrga tegishli bo'lgan me'moriy inshoot, so'nggi antik davrga oid turar-joy qoldiqlari ham o'rganildi.





Ushbu tadqiqotlar Janubiy Xorazmda arxaik davrdan to o'rta asrlargacha bo'lgan davr shaharsozlik madaniyati muammolarini o'rganishga xizmat qiladi.